

## JISMONIY TARBIYA VA SPORT VOSITASI YORDAMIDA YOSHLARDA MILLIY G‘URUR TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH

**Namozov Baxodir Kuchkorovich, Eshmuradov Kodir Abriyevich**  
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti (SamDAQU)

**Annotatsiya.** Milliy g‘ururi kuchli bo‘lgan kishi o‘zining milliy qadriyatlarini asrab avaylaydigan, ya’ni vatan, ona zamin, millat va millatlar aro munosabatlarning noyob qadriyat ekanini butun vujudi bilan anglaydigan va uni qadrlay biladigan kishidir.

**Kalit so‘zlar:** milliy g‘urur, jismoniy tarbiya va sport, milliy kurash, yosh avlod, milliy sport turi.

Insoniyat sivilizatsiyasi hamma vaqt ong va tafakkur tarqqiyoti, uning beqiyos kuch – qudrati, yaratuvchilik qobiliyati bilan tarixda buyuk siljishlar qilgan. Turli davrlarda, mintaqalarda, holatlarda yuz bergan bunday hodisalar inson va jamiyat taraqqiyotini yuksak cho‘qqilarga olib chiqqan. Bu cho‘qqilarga qaysi bir xalq o‘z hissasini boshqasiga nisbatan ko‘proq qo‘shgan. Hissasi ko‘p bo‘lgan xalqning tarixi va madaniyati ham boshqa xalqlarnikiga nisbatan ulug‘dir. Bu ulug‘lik shu xalqning milliy g‘ururi bilan ham bog‘liqdir. Milliy g‘urur millatning barcha sohalarda erishgan yutuqlari bilan o‘sib boradi. Chunki har qanday davlatning qudrati to‘g‘ridan – to‘g‘ri ana shu davlat teng huquqli fuqarolarining ma’naviy qiyofasi, ichki dunyosining boyligi bilan bog‘liqdir. Bunday mamlakatlarda mehnatga munosabat va ishlab chiqarish madaniyati fuqarolarning ichki madaniyati bilan uyg‘unlashib ketgan bo‘ladi. Aslida esa milliy g‘urur sof insoniy fazilat, eng pokiza, shabnam kabi beg‘ubor tuyg‘u. U insonning har bir hujayrasiga singib ketgan mo‘tabar hissiyot. Milliy g‘ururi kuchli bo‘lgan kishi o‘zining milliy qadriyatlarini asrab avaylaydigan, ya’ni vatan, ona zamin, millat va millatlar aro munosabatlarning noyob qadriyat ekanini butun vujudi bilan anglaydigan va uni qadrlay biladigan kishidir.

Bugungi o‘sha davrning eng katta ruhiy-ma’naviy ehtiyoji milliy g‘urur tuyg‘usidir. Yoshlarimiz milliy g‘urur tuyg‘usini kuchaytirishda xalqimiz o‘tmishini va boy tarixini chuqur o‘rganish, jahon taraqqiyotida yuksak o‘rin tutgan Sharq madaniyatini puxta egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun kimlarningdir nazdida biz mustaqillikni osongina qo‘lga kiritgandekmiz, lekin bu



yo‘lda qanchadan – qancha ota – bobolarimiz o‘z jonini fido qilganligini buyuk va shonli tariximiz isbotlamoqda.

Bugungi globallashuv davrida qaysiki mamlakat birinchi navbatda, erishgan natijalari bilan kifoyalanmasdan, dunyoda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar jarayonidagi o‘z o‘rniga haqqoniy va tanqidiy baho beradigan davrning tobora ortib borayotgan talablariga uyg‘un va hamohang bo‘lib qadam tashlaydigan mamlakatgina muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Bunday tez o‘zgarishlar ro‘y berayotgan jarayonlarda istiqlolni anglash, uni asrash xalqimiz uchun muqaddas vazifadir. Istiqlolni o‘z taqdiriga egalik qilish huquqi, ma‘naviy qadriyatlar va milliy an‘analarga tayanib yashash va yurtimiz boyliklaridan xalqimiz va Vatanimiz manfaatlari yo‘lida foydalanish imkoniyati ekanligi bugungi kunda barchamiz anglayotgan haqiqatdir. Biz azaldan inson ichki dunyosini boy, ma‘naviyatli qilish yo‘lidan kelmoqdamiz. Shu jihatimiz bilan boshqa xalqlar dunyoqarashidan, turmush tarzidan ham farq qilamiz. Chunki ma‘naviyat – insoniyat ichki dunyosining ko‘zgusi, tafakkuri, ongi va fikr yuritish tarzining mazmun – mohiyatini aks ettiruvchi yuksak ijtimoiy qadriyatdir. Bunday qadriyatlar ichida milliy xususiyatlarimizni o‘zida saqlab kelayotgan milliy kurashimizning millat birligi va erkinligini ta‘minlashda, yoshlarda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllanishida ahamiyati beqiyosdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Umuman jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari qabul qilinib, tizimli ravishda, izchillik asosida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada ommaviy sportning inson va oila hayotidagi roli, uning jismoniy va ma‘naviy sog‘lomlikning asosi, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarga o‘z qobiliyat va iste‘dodini ro‘yobga chiqarishda sportning ahamiyati juda kata ekanligi ma‘lum. Bunday islohotlar negizida milliy sport turi bo‘lgan milliy kurashga ham alohida e‘tibor qaratilib, olimpiada o‘yinlari tarkibiga kiritishga qaratilgan ulkan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning o‘ziga xususiyatlaridan biri aniq ifodalangan milliy xarakterdagi sport turlari: ag‘darish, ko‘pkari, poyga, kurash kabi xalq o‘yinlari borligidir. Bu o‘yin va sport turlarining hammasi qadim zamonlarda paydo bo‘lgan, taraqqiyotning har bir tarixiy bosqichida turli ijtimoiy vazifalarni bajargan va o‘z shaklini o‘zgartirgan.



Yuqorida bildirilgan mulohazalar asosida quyidagi fikrlarni xulosa sifatida berish mumkin:

- birinchidan, insonda milliy g‘urur tuyg‘usining rivojlanishi o‘z millatiga nisbatan iftixorning o‘shishiga olib keladi. O‘z millatidan g‘ururlangan inson millatdoshlariga birlashadi. Birlashgan millatga hech kim tajovuz qila olmaydi;

- ikkinchidan, bugungi kunda milliy xususiyatlarimizni saqlovchi va rivojlantiruvchi qadriyatlarimizni, ya‘ni milliy kurashimizni rivojlantirish, ommalashtirish orqali yoshlarimizning mard, jasur bo‘lib yetishishiga zamin yaratgan bo‘lamiz. Shuningdek, ularda “halol”ga intilish va “g‘irrom”dan qochish kabi fazilatlarni shakllantirib boramiz. Bunday holatda milliy kurash yosh avlodga namuna, ibrat oluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi;

- uchinchidan, mustaqillik davrida o‘shib kelayotgan yosh avlod tarixning o‘ziga tegishli sahifasini o‘zi yozishi kerak. Zero, shundagina buyuk xalqning porloq kelajagi ta‘minlanadi, ya‘ni xalqning muvaffaqiyati, xalqaro munosabatlarda erishgan marralari, qolaversa har bir sohada erishgan yutuqlari xalqning irodasi, milliy g‘ururini mustahkamlaydi.

Milliy kutash bilan shug‘ullangan yoshlarda o‘ziga bo‘lgan ishonch, jasurlik ortadi. Bu esa yoshlarimizning o‘z haq – huquqlarini talab qilishda, o‘z manfaatlarini himoya qilishda asosiy tuyg‘ulardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qosimov U., Xusainov Sh.Y., Eshmuradov K.A. “Jismoniy tarbiya va sport ta‘limida kurash milliy sport turning o‘tmishi va kelajagi” – o‘quv qo‘llanma. Samarqand-2021yil.
2. Shamshidin Yalgashevich, K., Abriyevich, E. Q., & Kuchkarovich, N. B. (2023). Analysis of the Technique of Teaching the Jerk in Weightlifting. Eurasian Research Bulletin, 17, 121-128.
3. —Yalgashevich, K. S., Abriyevich, E. K., Kuchkarovich, N. B., & Vladislavnovna, K. D. (2021). WRESTLING IS THE PAST AND FUTURE OF NATIONAL SPORTS. World Bulletin of Management and Law, 3, 26-30.
4. Yalgashevich, K. S., Kuchkarovich, N. B., & Abriyevich, E. Q. (2023). Results of Therapeutic Physical Culture with Students with Significant Health Impairments. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 2(2), 16-18.
5. Turdimurodovich, M. I., Shamshidin Yalgashevich, K., & Kuchkarovich, N. B. (2023). INNOVATIVE SOLUTIONS FOR ORGANIZING THE CONSTRUCTION OF MULTIFUNCTIONAL SPORTS FACILITIES. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 37-41.

